Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2023-YIL — INSONGA E’TIBOR VA SIFATLI TA’LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2023-yil 22-dekabr, № 273 (8616) Juma

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

KO‘P QIRRALI HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH MUHIMLIGI QAYD ETILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 21-dekabr kuni tashrif bilan mamlakatimizda bo‘lib turgan Qirg‘iz Respublikasi tashqi ishlar vaziri Jeenbek Kulubayevni qabul qildi.

O‘zbekiston bilan Qirg‘iziston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va keng ko‘lamli strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, ularni aniq mazmun bilan boyitish masalalari ko‘rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida tashqi ishlar vaziri Jeenbek Kulubayev davlatimiz rahbariga Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston yetakchisi keyingi yillarda ikki tomonlama hamkorlik yuksak darajaga chiqqani va sermahsul tus olganini, shu jumladan, parlamentlar, hukumatlar, hududlar, jamoatchilik va ishbilarmon doiralar darajasidagi muloqot va almashinuvlar ancha faollashganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

Hukumatlararo komissiya samarali faoliyat yuritmoqda. O‘zbekiston — Qirg‘iziston taraqqiyot fondi ishga tushirildi. Tovar ayirboshlash va yuk tashish hajmlari ortmoqda, mashinasozlik, elektrotexnika, to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Qo‘shma madaniy-gumanitar tadbirlar muntazam ravishda o‘tkazib kelinmoqda.

Faol siyosiy muloqotni davom ettirish hamda ustuvor dastur va loyihalarni, shu jumladan, Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston temir yo‘li qurilishini jadallashtirish muhimligi alohida ta’kidlandi.

O‘zA.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI MISR YETAKCHISINI SAYLOVDAGI ISHONCHLI G‘ALABASI BILAN TABRIKLADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 21-dekabr kuni Misr Arab Respublikasi Prezidenti Abdulfattoh as-Sisi bilan telefon orqali muloqotda uni Prezident saylovida qozongan ishonchli g‘alabasi bilan samimiy qutladi.

Saylovchilarning faol ishtiroki va ovoz berish natijalari do‘st Misr xalqi amaldagi davlat rahbarining siyosati va islohotlar dasturini keng qo‘llab-quvvatlayotganidan dalolat ekani qayd etildi.

O‘zbekiston — Misr keng ko‘lamli sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Joriy yil fevral oyida Qohiraga oliy darajali tashrif davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi.

Muloqot va almashinuvlar faol davom etayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro savdo hajmi oshib bormoqda. Qishloq xo‘jaligi, geologiya, suv ta’minoti, transport, logistika, kimyo sanoati va boshqa ustuvor sohalarda kooperatsiya loyihalari boshlandi.

Ikki tomonlama Hukumatlararo komissiya va Ishbilarmonlar kengashining navbatdagi yig‘ilishlarini o‘tkazish kelishib olindi.

Xalqaro kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘zA.

SENATORLAR TOMONIDAN BIR QATOR TAKLIFLAR ILGARI SURILDI

Kuni kecha bo‘lib o‘tgan Oliy Majlis Senatining qirq sakkizinchi yalpi majlisidan o‘rin olgan har bir masalaga senatorlar mas’uliyat hissi bilan yondashdi. Negaki, mazkur masalalar mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohotlar jarayoniga yangicha sur’at berishga yo‘naltirilgani bilan alohida e’tiborga molik. Senatorlar ulardan ayrimlarining mazmun-mohiyati hamda ahamiyati xususida shunday fikr bildirdi.

Fikr

Daraxt kesganlik uchun javobgarlik kuchaytirilmoqda

Boriy ALIXONOV,
Oliy Majlis Senatining Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo‘mitasi raisi:

— Keskin iqlim o‘zgarishlari kuzatilayotgan hozirgi paytda tabiatni asrab-avaylash hamda yashil hududlarni kengaytirish har qachongidan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shundan kelib chiqib, keyingi yillarda yurtimizda bu masalaga katta e’tibor qaratilmoqda. Aniq aytganda, aholi punktlarini ko‘kalamzorlashtirish, daraxtlar va butalarni muhofaza qilish, shuningdek, yashil zonalarni kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilayotir.

Yalpi majlisda senatorlar tomonidan ma’qullangan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun ana shu maqsadga yo‘naltirilganligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Gap shundaki, ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan hamon ayrim shaxslarning o‘simlik dunyosi obyektlariga nisbatan tajovuzkorona xatti-harakatlari, jumladan, daraxtlarning qonunga xilof ravishda kesilishi bilan bog‘liq holatlar kuzatilyapti.

2

Saylov va referendum o‘tkazish:

DEMOKRATIK QOIDALAR VA YANGICHA YONDASHUV

Shu yil 18-dekabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni imzolandi.

Qayd etish joiz, mazkur hujjat bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini aralash saylov tizimi (majoritar va proporsional) asosida o‘tkazishni, shuningdek, saylov organlarining markazlashgan tizimini shakllantirish, saylov komissiyalari tizimini maqbullashtirish, Markaziy saylov komissiyasi faoliyatini takomillashtirish hamda siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlar ko‘rsatilayotganda ayollar sonining eng kam miqdorini nomzodlar umumiy sonining o‘ttiz foizidan qirq foiziga oshirishni nazarda tutuvchi o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi.

Muxbirimiz ushbu Konstitutsiyaviy Qonunning ahamiyati, mazmun-mohiyati haqida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasi raisi Jahongir SHIRINOV bilan suhbatlashdi.

Eksklyuziv intervyu

— Jahongir Jabborovich, ayting-chi, mamlakatimizda saylov qonunchiligini takomillashtirishga qanday zarurat bor edi?

— Bilamizki, saylovlar orqali har bir fuqaro jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita qatnashadi hamda ushbu siyosiy jarayonda mamlakat taqdiriga befarq emasliklarini namoyon qilgan holda faol ishtirok etadi.

Shu nuqtayi nazardan aytganda, fuqarolarning mamlakat boshqaruvida yanada keng qatnashuvini ta’minlash maqsadida mamlakatimizda saylov qonunchiligini izchil takomillashtirib borishga alohida e’tibor qaratildi. Binobarin, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham saylov tizimini takomillashtirishga qaratilgan qator normalar o‘z aksini topdi. Ayniqsa, saylovlarni professional, ochiq va demokratik tarzda uyushtirish va o‘tkazish uchun Markaziy saylov komissiyasining konstitutsiyaviy maqomi yanada mustahkamlandi. Xususan, saylov organlarining vertikal tizimini yaratish maqsadida Markaziy saylov komissiyasi zimmasiga nafaqat Prezident saylovi yoki parlamentga saylovni, balki xalq deputatlari Kengashlariga saylovlarni ham tashkil etish va o‘tkazish vazifasi yuklatildi.

2

HALOLLIK, KORRUPSIYAGA NISBATAN TOQATSIZLIK — USTUVOR MAQSAD

Korrupsiyaga qarshi kurashish bugungi kunda dunyo hamjamiyati oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri.

Ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi kunda korrupsiyaning dunyo miqyosidagi zarari yiliga 3 trillion AQSH dollariga yaqin miqdorni tashkil etadi. Bu global yalpi ichki mahsulotning 5 foizdan ko‘pi ekanligi, har yili global miqyosda bu illat tufayli davlat xaridlari fondlarining 25 foizgacha qismi yo‘qotilishi achinarli. O‘zbekistonda 2020 — 2023-yillar davomida aniqlangan korrupsiya holatlari yuzasidan 101 ta jinoyat ishi, 196 ta ma’muriy ish qo‘zg‘atilgan.

Munosabat

Mamlakatimizda so‘nggi yillardagi korrupsiyaga qarshi kurashishni tartibga solishga qaratilgan huquqiy asoslar sifatida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi, “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonunlarni alohida qayd etish o‘rinlidir.

2

DAVLAT BUDJETI TAQSIMOTIDA QANDAY O‘ZGARISHLAR BOR?

Oliy Majlis Senatining Budjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo‘mitasi tomonidan Hududiy vakillik organlari faoliyatini o‘rganish markazi bilan hamkorlikda mahalliy Kengashlarning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiya va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyalari uchun seminar o‘tkazildi. Mazkur tadbir “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonunning mazmun-mohiyatini tushuntirishga bag‘ishlandi.

Seminar

Qayd etilganidek, Davlat budjetining 2024-yil uchun parametrlari, budjet taqchilligi miqdorlari jahon iqtisodiyotidagi noaniqliklar va geosiyosiy vaziyatning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta’sirini yumshatish va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish singari omillarni e’tiborga olgan holda hisob-kitob qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan budjetining 2024-yilgi daromadlari 375 trillion so‘m va xarajatlari 427,6 trillion so‘m, taqchilligi 52,6 trillion so‘m yoki YIMga nisbatan 4 foiz miqdorida belgilanmoqda.

2

MA’NAVIYAT CHIROG‘I

INSONNING ONGU TAFAKKURINI YORITADI, QALBI, VIJDONINI UYG‘OTADI

Taraqqiyot, tinchlik-totuvlik barqarorligi, qo‘yingki, har qanday ezgu maqsad inson omili vositasida ro‘yobga chiqadi. Soddaroq aytganda, kishi salohiyatli, ertani o‘ylaydigan, qalbi pok, milliy g‘ururi baland, vijdoni uyg‘oq, halol bo‘lsa, o‘z oldiga ezgu maqsadlar qo‘yadi va ularga astoydil intilib yashaydi. Boshqalarga qayishadi, o‘zidan yaxshi iz qoldirish uchun harakat qiladi. Turli nopok yo‘llardan yurmaydi, nomiga dog‘ tushirmaydi.

Prezidentimiz yangi O‘zbekistonni bunyod etishni, uchinchi Renessans poydevorini yaratishni maqsad qilib qo‘yarkan, faoliyatining dastlabki yillaridanoq iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar bilan birga, yangi davr kishisini tarbiyalash, odamlar ongu tafakkurini o‘zgartirish, hayotga qarashlarini isloh etish, milliy g‘ururni yuksaltirishni eng dolzarb masalalardan biri sifatida urg‘uladi. Bu yo‘lda qiyosi yo‘q inqilobiy o‘zgarishlar amalga oshirilib, qator qonun, Farmon va qarorlar imzolandi, ko‘plab yig‘ilish va uchrashuvlar o‘tkazildi. Ularda ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi.

Хасан ПАЙДОЕВ олган суратлар.

Dolzarb mavzu

Milliy o‘zlik tomon dadil qadam

Ilgari ma’naviy-ma’rifiy soha haqida ko‘p gapirilsa-da, uni rivojlantirishga kompleks yondashilmagani, mavjud muammolar ilmiy tahlillar asosida bartaraf qilinmagani, yetarli mablag‘ ajratilmagani ochiq tan olinib, islohotlarning yangi davrida bu masalalarni to‘la hal etishga kirishildi.

Prezidentimiz qarori bilan ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarining mazmun-mundarijasini tubdan yaxshilash, ularning ko‘lami va miqyosini kengaytirish, tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan soha xodimlarining bilim va malakasini izchil oshirib borish, tuman (shahar) darajasidagi xodimlar mehnatiga haq to‘lashning barqaror tizimini yo‘lga qo‘yish, sohada faoliyat yuritayotgan muassasa va tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish hamda ularning samarasini oshirish maqsadida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tashkil etildi.

3

SENATORLAR TOMONIDAN BIR QATOR TAKLIFLAR ILGARI SURILDI

1 Shu munosabat bilan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda daraxt va butalarning qimmatbaho navlarini kesishga, kundakov qilishga, shikastlantirishga yoki yo‘q bo‘lishiga olib keladigan loyiha hujjatlarini ishlab chiqqanlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilanmoqda. Ayni chog‘da daraxtlarni qonunga xilof ravishda kesganlik, kundakov qilganlik yoki shikastlantirganlik uchun ma’muriy jazo choralari kuchaytirilib, bir-birini takrorlovchi normalar chiqarib tashlanmoqda.

Qolaversa, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunda davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarning qimmatbaho navlarini noqonuniy kesgan yoki yo‘q qilgan shaxslarning kesilgan daraxt va buta o‘rniga kompensatsiyaviy daraxt va buta ko‘chatlarini aynan ularning o‘rniga ekish hamda ularni uch yil davomida parvarishlash majburiyati belgilanayotganligini aytib o‘tish zarur. Bundan tashqari, shu qilmishni sodir etgan yuridik shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar qo‘llaniladi.

Ko‘rinib turibdiki, bu yangiliklar daraxt va butalarni asrab-avaylash va pirovardida mamlakatimiz bo‘ylab yashil hududlarni kengaytirishda qo‘l keladi.

“Yo‘l xaritalari” ijrosi qanday ta’minlanmoqda?

Anvar TO‘YCHIYEV,
Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasida doimiy asosda ishlovchi senator:

— Oliy Majlis Senati tomonidan yurtimiz tuman va shaharlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari ijrosi ustidan parlament nazorati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu o‘z samarasini berib kelmoqda. Buni yalpi majlisda Namangan hamda Farg‘ona viloyatlari hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan “yo‘l xaritalari”ning ijrosi keng muhokama qilingani misolida ham kuzatish mumkin.

Ma’lum bo‘lishicha, “yo‘l xaritalari” ijrosi doirasida bu viloyatlarda salmoqli ishlar bajarilgan. Masalan, joriy yil yanvar — oktabr oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Farg‘onada 5,2, Namanganda 7,4, xizmat ko‘rsatish esa ikkala hududda ham 10,1 foizga o‘sgan. Ayni chog‘da Investitsiya dasturlari doirasida Namanganda 705,4 mln. dollarlik 1072 ta, Farg‘onada 518,1 mln. dollarlik 1016 ta loyiha ishga tushirilgan.

Aytish joizki, har ikkala viloyatda ham shu singari yutuqlar talaygina. Ammo muayyan kamchiliklar borligidan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi. Misol uchun, Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilgan kredit mablag‘lari o‘zlashtirilishi Namangan viloyatining Yangi Namangan, To‘raqo‘rg‘on va Kosonsoy tumanlarida juda past.

Yana bir misol. Ijtimoiy soha obyektlarini isitish tizimi uchun ko‘mir

yoqilg‘isi zaxirasini yaratish rejasi Namangan viloyatining Uchqo‘rg‘on, Pop va Chortoq tumanlarida hamda Farg‘ona viloyatining Marg‘ilon shahrida yakuniga yetkazilmagan.

O‘z navbatida, senatorlar tomonidan viloyatlarda xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, past quvvatda ishlayotgan sanoat korxonalari bilan ishlash, investitsiyalar jalb qilish, eksport hajmini oshirish, aholini uy-joy bilan ta’minlash, muqobil energiyani joriy qilish, suv tejovchi texnologiyalar o‘rnatilishi yuzasidan belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar ko‘rsatib o‘tildi hamda bu borada bir qator takliflar ilgari surildi.

O‘ylaymizki, birgalikdagi sa’y-harakatlarimiz ushbu kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi.

“Xalq so‘zi”.

DAVLAT BUDJETI TAQSIMOTIDA QANDAY O‘ZGARISHLAR BOR?

1 Shundan Davlat budjeti daromadlari 270,7 trillion so‘m yoki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 20,8 foiz miqdorida prognoz qilinmoqda.

Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlari taqchilligi 2024-yilda 3,1 foiz miqdorida belgilanmoqda, 2025-2026-yillarda esa taqchillik tegishincha 1,8-2,2 foizgacha pasayishi prognoz qilinayotir.

2024-yil uchun Davlat budjeti xarajatlari 312 trillion 921 milliard so‘m miqdorida rejalashtirildi.

Aytish lozimki, kelgusi yil budjetida ham ijtimoiy soha xarajatlari salmoqli ulushni tashkil etadi. Xarajatlarning 48 foizdan ortig‘i yoki 151,5 trillion so‘m ijtimoiy sohaga yo‘naltirilishi kutilmoqda.

Seminarda 2024-yil uchun soliq-bojxona siyosatining asosiy yo‘nalishlariga ham to‘xtalib o‘tildi.

Xususan, 2024-yil uchun soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari — qo‘shilgan qiymat solig‘i, foyda solig‘i va aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha ayrim imtiyozlar bekor qilinib, mutlaq summada belgilangan soliq stavkalarining kutilayotgan inflyatsiya darajasidan kelib chiqqan holda indeksatsiya qilinishi belgilanmoqda.

2024-yil 1-apreldan zararli gazlari yuqori bo‘lgan benzinga aksiz solig‘i stavkasi 12 foizga (oktan miqdori 91 va undan yuqori bo‘lgan benzin bundan mustasno) indeksatsiya qilinmoqda.

Og‘ir yuk mashinalari tomonidan respublika va mahalliy darajadagi yo‘llardan foydalanishda ularni yaroqsiz holga keltirish oqibatida yetkazilayotgan zararlarni qoplash maqsadida yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan yuqori avtotransport vositalari va tirkamalarining avtomobil yo‘llari bo‘ylab harakatlanishi huquqi uchun yig‘im joriy etilmoqda.

Biznes yuritishni soddalashtirish maqsadida soliq hisobotlarini saqlash va soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilishning besh yillik muddati qisqartirilib, uch yil etib belgilanmoqda.

Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish va baliq yetishtirish uchun foydalaniladigan suv hajmi, shu jumladan, dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun soliq stavkasi 100 so‘m miqdorida bo‘ladi.

Tadbir yakunida xalq deputatlari mahalliy Kengashlari doimiy komissiyalariga tegishli tavsiyalar berildi.

“Xalq so‘zi”.

Saylov va referendum o‘tkazish:

DEMOKRATIK QOIDALAR VA YANGICHA YONDASHUV

1 Qolaversa, davlat boshqaruvida meritokratiya tamoyillarini tatbiq qilish maqsadida ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Markaziy saylov komissiyasining raisi etib saylanishi mumkin emasligi belgilandi.

Aytish kerakki, bunday yangi konstitutsiyaviy normalar sohani tartibga soluvchi maxsus qonunlarda ham o‘z aksini topishi lozim edi. Chunki Bosh qomusimizning 16-moddasiga muvofiq, birorta qonun Konstitutsiya normalariga zid bo‘lishi mumkin emas.

Bundan tashqari, mamlakat hayotida siyosiy partiyalarning roli hamda fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish maqsadida aralash saylov tizimiga o‘tish taklifi anchadan beri ilgari surib kelinayotgan edi. Bunda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga deputatlik o‘rnining 50 foizi majoritar, ya’ni hozirgidek muayyan okruglar bo‘yicha eng ko‘p ovoz olgan nomzodlar saylanishi, qolgan 50 foizi esa proporsional, ya’ni aniq bir shaxsga emas, balki partiyaga ovoz berish orqali, partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan ro‘yxat asosida nomzodlar saylanishi nazarda tutiladi.

Bunday saylov tizimida, ochig‘ini aytish kerak, partiyalar muhim o‘rin tutadi. Ular aholi bilan munosabatlarining ta’sirchan va natijador bo‘lishiga harakat qiladi. Partiya o‘z dasturi orqali xalqni ishontira olsagina, muayyan ovozga erishadi. Bu esa jamiyatimizda siyosiy plyuralizm bo‘lishini ta’minlaydi.

Shu bois bir qator deputatlarimiz tashabbusi bilan saylov va referendum o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi quyi palataga kiritildi. Birinchi o‘qishda konseptual jihatdan qabul qilingan loyiha zarurat va ahamiyatidan kelib chiqib, jamoatchilik muhokamasiga ham qo‘yildi. Bizning qo‘mitamiz mas’ulligida ushbu hujjatni yanada takomillashtirish, pishiq-puxta holatga keltirish bo‘yicha muayyan ishlar bajarildi. Qizg‘in tortishuvlarda bildirilgan fikr-mulohazalar, jamoatchilik muhokamasida turli soha vakillari, yoshlardan tushgan takliflardan kelib chiqib, qonun loyihasi maromiga yetkazilib, qabul qilindi va kuni kecha davlatimiz rahbari tomonidan imzolandi.

— Mazkur qonundagi muhim o‘zgarishlarga to‘xtalib o‘tsangiz.

— Ushbu qonun bilan Saylov kodeksiga hamda 7 ta qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Saylovlarning majoritar va proporsional tizimini nazarda tutuvchi qoidalar Saylov kodeksida o‘z ifodasini topdi. Jumladan, saylov okruglari yetmish beshta hududiy bir mandatli hamda yagona saylov okrugiga bo‘linadi. Bunda partiya ro‘yxati asosida Qonunchilik palatasiga saylovni o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasining butun hududi yagona saylov okrugi hisoblanadi. Ya’ni Qonunchilik palatasining 75 nafar deputati amaldagidek majoritar tizim asosida bir mandatli saylov okruglaridan, qolgan 75 nafari esa partiya ro‘yxati bo‘yicha yangi taklif etilayotgan proporsional tizim asosida yagona saylov okrugidan saylanishi belgilanadi. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, saylovda ovoz berishga kelgan fuqaroning qo‘lida ikkita — birida deputatlikka nomzodlar, ikkinchisida partiyalar ro‘yxati ko‘rsatilgan byulleten bo‘ladi. Saylovchi shu ikkalasidagi o‘ziga ma’qul deputatlikka nomzodni va partiyani belgilaydi.

E’tiborli jihati, partiya ro‘yxatida gender tengligini ta’minlash maqsadida xuddi majoritar tizim bo‘yicha nomzodlarning kamida 40 foizi ayollar bo‘lishi nazarda tutiladi.

Yana bir muhim o‘zgarish shuki, yagona saylov okrugi bo‘yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning kamida yetti foiz ovozini olgan partiya belgilangan tartibda deputatlik o‘rinlariga ega bo‘lishi o‘rnatiladi. Agar hech qaysi partiya kamida yetti foiz ovozni to‘plamagan bo‘lsa, saylov o‘tmagan, deb topilishi belgilanmoqda.

Bundan tashqari, yagona saylov okrugi bo‘yicha saylovchilarning ovozi asosida deputatlik o‘rinlarini partiyalar o‘rtasida taqsimlashning aniq tartibi o‘rnatiladi. Bunda proporsional saylov tizimida yetti foizlik chegaradan o‘tgan partiyalarga yoqlab berilgan umumiy ovozlar soni 75 ta deputatlik o‘rniga bo‘linadi va undan chiqqan raqam saylov koeffitsiyenti hisoblanadi. So‘ngra har bir partiyaga yoqlab berilgan ovozlar soni mana shu saylov koeffitsiyentiga bo‘linadi. Undan chiqqan son esa har bir partiyaga beriladigan deputatlik o‘rniga teng bo‘ladi. Agar yaxlit bo‘lmagan qoldiq sonlar vujudga kelib, buning natijasida ba’zi deputatlik o‘rinlari taqsimlanmasdan qolsa, ularni ham taqsimlash tartibi aniq ochib berildi.

— Saylov kodeksiga “Markaziy saylov komissiyasi — hududiy saylov komissiyasi — tuman va shahar saylov komissiyasi — okrug saylov komissiyasi — uchastka saylov komissiyasi” tuzilmasi kabi vertikal tizimni tatbiq etish ko‘zda tutilgan. Bu nimalarni anglatadi?

— Darhaqiqat, Saylov kodeksida saylov komissiyalarining vertikal tizimini nazarda tutuvchi qoidalar aks etdi. Bunda viloyatlar va Toshkent shahar saylov komissiyalari o‘rniga hududiy saylov komissiyalari tuzilishi nazarda tutiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini hamda Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o‘tkazish bo‘yicha okrug saylov komissiyalarini tuzish tartibidan voz kechish hamda ularning vazifalarini hududiy saylov komissiyalariga yuklash taklif etildi. Ya’ni okrug saylov komissiyalari faqat xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent

shahar Kengashlariga saylov o‘tkazish bo‘yicha tuzilishi belgilandi.

Saylov komissiyalarining professional tarzda ish olib borishini ta’minlash maqsadida hududiy saylov komissiyalarining uch nafargacha bo‘lgan a’zosining doimiy faoliyat yuritishi belgilandi. Xuddi shunday, Markaziy saylov komissiyasining doimiy asosda ishlovchi a’zolari soni 7 nafardan 9 nafarga oshirilmoqda hamda jamoatchilik asosida a’zolari faoliyati tugatilmoqda. Ya’ni Markaziy saylov komissiyasining barcha 9 nafar a’zosi doimiy asosda ishlashi taklif etildi.

Yana bir muhim qoida — Markaziy saylov komissiyasi Raisining vakolat muddati besh yil etib belgilandi hamda ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq bu vazifaga saylanishi mumkin emasligi o‘rnatildi.

Shuningdek, hududiy saylov komissiyalari Markaziy saylov komissiyasi tomonidan, tuman va shahar saylov komissiyalari esa hududiy saylov komissiyalari tomonidan tuzilishi belgilandi (amalda ular xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tuzilardi). Bunda tegishli xalq deputatlari Kengashlari nomzodlarni tavsiya qiladi. Shu bilan birga, okrug saylov komissiyalari va uchastka saylov komissiyalari ham hududiy saylov komissiyalari tomonidan tuzilishi nazarda tutildi.

Saylov komissiyasi a’zolarining ijtimoiy kafolati kuchaytirilayotgani esa e’tiborga molik. Xususan, saylov komissiyasining o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradigan a’zolari saylov davrida ish beruvchining tashabbusi bilan ishdan bo‘shatilishi yoki ularning roziligisiz boshqa ishga o‘tkazilishi mumkin emasligi o‘rnatilmoqda.

— Qonunda Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar saylovi natijalarini belgilash tartibi qanday belgilandi? Shu xususda ham to‘xtalib o‘tsangiz...

— Amaldagi qonunchilikda saylovda ishtirok etgan saylovchilar yarmidan ko‘pining ovozini olgan nomzod saylangan hisoblanardi, ya’ni mutlaq ko‘pchilik ovoz talab qilinadi. Ushbu talab Prezident saylovlariga nisbatan to‘g‘ri qo‘llanilgan bo‘lib, bundan maqsad saylov huquqiga ega bo‘lgan mamlakat aholisining mutlaq ko‘pchiligi tanlagan shaxsgina Prezident lavozimiga munosib ko‘riladi. Bunday amaliyot aksariyat xorijiy mamlakatlarda ham mavjud.

Shu bilan birga, bir nechta saylov okruglaridan saylanadigan deputatlikka nomzodlarga nisbatan bu kabi qoidani qayta ko‘rib chiqish zarurati mavjud. Chunonchi, boshqalarga nisbatan ko‘proq ovoz olgan deputatlikka nomzod saylanmas ekan, o‘sha hududdagi nisbatan ko‘pchilikning fikri va xohish-istagi amalga oshmay qoladi. Shu sababli bir mandatli saylov okruglarida boshqa nomzodlarga nisbatan ko‘proq ovoz olgan deputatlikka nomzod saylangan, deb hisoblanishi belgilandi. Ya’ni mutlaq ko‘pchilik emas, balki nisbiy ko‘pchilik ovozi bilan deputatlar saylanishi nazarda tutildi.

— Siyosiy partiyalar faolligini yanada kuchaytirish muhim demokratik talablardan sanaladi. Konstitutsiyaviy Qonunda ularning parlamentdagi rolini yanada oshirishga oid qanday qoidalar kiritilmoqda?

— Ma’lumki, partiya ro‘yxati asosida saylangan deputatlar muayyan saylov okrugiga ega bo‘lmaydi. Bunday deputatlar va saylovchilar o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantirish uchun asosiy mas’uliyat siyosiy partiyalar fraksiyasi zimmasida bo‘ladi. Shunga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to‘g‘risida”gi hamda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a’zosining maqomi to‘g‘risida”gi qonunlarda partiya ro‘yxati asosida saylangan deputatlarning saylovchilar bilan aloqasi tegishincha siyosiy partiya fraksiyasi tomonidan belgilanishi mustahkamlandi.

Taklif etilgan proporsional saylov tizimida siyosiy partiyalar saylovchilarning kamida 7 foiz ovozini olgan taqdirda, ularga deputatlik o‘rinlari berilishi nazarda tutildi. Shunga mos ravishda hamda ko‘ppartiyaviylik tamoyiliga sodiq qolgan holda kam ovoz to‘plagan partiyalarga ham imkoniyat yaratish maqsadida tegishli qonunlarda quyi palatada fraksiya tuzishi mumkin bo‘lgan deputatlar soni to‘qqiz nafardan besh nafarga tushirilishi belgilandi. Shuningdek, siyosiy partiyadan ko‘rsatilgan va Qonunchilik palatasiga saylangan deputat faqat shu partiya fraksiyasining a’zosi bo‘lishi qat’iy o‘rnatildi.

Umuman aytganda, ushbu Konstitutsiyaviy Qonun siyosiy partiyalar va deputatlar o‘rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishiga, siyosiy partiyalarning mavqei hamda saylov organlarining professionallik darajasi yanada oshishiga xizmat qiladi. Eng muhimi, saylov va referendum to‘g‘risidagi qonunchilikni yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muvofiqlashtiradi va parlamentni shakllantirishning yangi zamonaviy tizimini yo‘lga qo‘yadi.

Ziyoda ASHUROVA (“Xalq so‘zi”) suhbatlashdi.

Oliy Majlis Senatida

TALABALAR UCHUN MAHORAT DARSI

Oliy Majlis Senatida Toshkent davlat yuridik universitetining Davlat boshqaruvi kafedrasi qoshidagi “Amaliy iqtisodiyot” to‘garagi a’zolari uchun “Investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirishda parlamentning o‘rni” mavzuida mahorat darsi tashkil etildi.

Mahorat darsini Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasi raisi Ravshanbek Alimov va senator Anvar To‘ychiyev olib bordi.

Unda talabalarga Oliy Majlis Senati faoliyati, investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirishda parlamentning roli, ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar haqida ma’lumot berildi.

Shuningdek, mashg‘ulot davomida talabalar senatorlar faoliyati hamda qonunlarni qabul qilish jarayonlari bilan bog‘liq o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob olish imkoniga ega bo‘ldi.

“Xalq so‘zi”.

Qonunchilik palatasi qo‘mitalarida

QONUN LOYIHALARI KO‘RIB CHIQILMOQDA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo‘mitasi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining faoliyati yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokamasiga bag‘ishlangan ishchi guruh yig‘ilishi o‘tkazildi.

Qonun loyihasi bilan asosiy faoliyati tabiiy monopoliya bo‘lmagan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tabiiy monopoliyalar sohasida faoliyat olib borganda ular tabiiy monopoliya subyektlari hisoblanmasligi, bunda ushbu xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan narxlar (tariflar) asossiz oshirilishi yoki noto‘g‘ri qo‘llanilishi, tadbirkorlar va iste’molchilar huquqlari va manfaatlarining kamsitilishi kabi holatlarda ularga nisbatan raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablari qo‘llanilishi nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, iqtisodiy ta’siri past holatlar bo‘yicha birinchi marta huquqbuzarlik sodir etgan tadbirkorlik subyektlariga javobgarlik choralarini qo‘llamagan holda, profilaktik tushuntirish tadbirlarini amalga oshirish belgilanmoqda.

Yig‘ilishda qonun loyihasini yanada takomillashtirish, pishiq-puxta holatga keltirish va maromiga yetkazish bo‘yicha qator takliflar berildi.

Ayni vaqtda mas’ul qo‘mita tomonidan ushbu qonun loyihasi Quyi palata majlisida birinchi o‘qishda konseptual jihatdan ko‘rib chiqish uchun tayyorlanmoqda.

* * *

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Innovatsion rivojlanish, axborot siyosati va axborot texnologiyalari masalalari qo‘mitasi tomonidan “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokamasiga bag‘ishlangan ishchi guruh yig‘ilishi o‘tkazildi.

Mazkur qonun loyihasi siyosiy partiyalar fraksiyalari yig‘ilishlarida har tomonlama muhokamalardan o‘tkazilgan, Qonunchilik palatasi majlisida deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda ko‘rib chiqilgan edi.

Ushbu qonun loyihasi bilan amaldagi “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi Qonunga oldin mavjud bo‘lmagan qator yangi normalar kiritilmoqda.

Qonun loyihasi telekommunikatsiya infratuzilmasidan samarali foydalanish imkoniyatini yaratish orqali xizmatlar qamrovini hamda sifatini oshirishga qaratilgan. Internetdan foydalanish imkoniyatining kengayishi esa aholining davlat xizmatlaridan faol foydalanishlari, elektron tijoratni amalga oshirishlari hamda o‘zlari uchun zarur bo‘lgan axborotni izlash, olish va tarqatish singari konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarining ta’minlanishiga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda qonun loyihasi mas’ul qo‘mita tomonidan ikkinchi o‘qishga tayyorlanmoqda.

* * *

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo‘mitasi tomonidan “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi munosabati bilan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish haqida”gi qonun loyihasi muhokamasiga bag‘ishlangan ishchi guruh yig‘ilishi o‘tkazildi.

Mazkur qonun loyihasi bilan tadbirkorlik subyektlari davlat ro‘yxatidan o‘tgan hududidan qat’i nazar, ularning tovarlari, xizmatlari, mehnat resurslari va moliyaviy mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi hududida erkin harakatlanishining kafolatlanishi nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasi tadbirkorlik subyektlarining erkin faoliyat yuritishiga va o‘ziga tegishli bo‘lgan tovar va xizmatlardan o‘z xohishiga ko‘ra foydalanishiga qaratilgan.

Ayni paytda mas’ul qo‘mita tomonidan ushbu loyiha mutaxassislar, ekspertlar ishtirokida maromiga yetkazilib, Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi muhokamasiga ikkinchi o‘qishga kiritishga tayyorlanmoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Parlament axborot markazi.

HALOLLIK, KORRUPSIYAGA NISBATAN TOQATSIZLIK — USTUVOR MAQSAD

1 Qolaversa, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan muhim preventiv mexanizmlar yaratilgani, davlat boshqaruvida byurokratiyani yo‘qotish, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, davlat xizmatlarini ko‘rsatish sifatini yaxshilash, raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosatining muhim elementlari bo‘lib xizmat qilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha yuksak xalqaro mukofot bilan taqdirlash marosimining poytaxtimizda bo‘lib o‘tganligida ham ramziy ma’no bor. Ushbu mukofot Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy homiyligida Qonun ustuvorligini ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha markaz tomonidan BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan. Mazkur xalqaro mukofot 5 ta yo‘nalishda topshiriladi. Shu kunga qadar ushbu marosim to‘rt qit’adagi 6 ta mamlakatda o‘tkazilgan bo‘lib, Toshkent shahrida uyushtirilgan taqdirlash marosimi O‘zbekistonni yettinchi mamlakat sifatida tarixga muhrladi.

Yana bir jihat. Poytaxtimizda xalqaro hamjamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi sa’y-harakatlarini ifodalovchi monument ochildi. Kafti ochiq qo‘l ko‘rinishida ushbu kompozitsiya halollik, korrupsiyaga nisbatan toqatsizlikni, butun dunyoni unga qarshi kurashishda birlashishga da’vatni anglatadi.

Marosimda davlatimiz rahbari nutq so‘zlab, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha so‘nggi yillarda amalga oshirilgan eng muhim masalalarga to‘xtaldi. Shuningdek, jahon hamjamiyatiga yangi O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida katta reja va vazifalar qo‘yilganligi alohida ta’kidlandi. Bu kelgusida korrupsiyaga qarshi kurashishda hammamiz uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Shu o‘rinda aytish kerak, mamlakatimiz korrupsiyaga qarshi kurashishda o‘z maqsadlariga ega. Xususan, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham bu bo‘yicha alohida maqsad, xususan, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish belgilandi. Uni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari hujjatda o‘z aksini topdi. Jumladan, “Transparency International” xalqaro tashkiloti tomonidan e’lon qilinadigan Korrupsiyani qabul qilish indeksida kamida 50 pog‘onaga ko‘tarilishga erishish, davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini 2 barobarga kamaytirish, 100 foiz normativ-huquqiy hujjatlarning “korrupsiyadan xoli qonunchilik” tamoyili asosida ishlab chiqilishini ta’minlash masalalari ustuvor etib belgilangan.

Umuman olganda, korrupsiya davlat organlari faoliyatiga putur yetkazadi, iqtisodiy tushkunlikni keltirib chiqaradi, aholining davlat hokimiyati boshqaruvi organlariga bo‘lgan ishonchini yo‘qotadi, taraqqiyotni sekinlashtiradi. Shuning uchun ham ushbu illatga qarshi kurashish barchamizning asosiy vazifamizga aylanishi lozim.

Firdavs SHARIPOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

MA’NAVIYAT CHIROG‘I

INSONNING ONGU TAFAKKURINI YORITADI, QALBI, VIJDONINI UYG‘OTADI

1

Davlat rahbarining Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tumanlar (shaharlar) hokimlari tegishli ravishda hududiy kengashlarga jamoatchilik asosida raislik qilishi belgilab qo‘yilishi bu jabhaning nechog‘li diqqat-e’tiborda ekanini yana bir bor ko‘rsatadi.

Prezident qaroriga muvofiq, Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasi tashkil etilishi sohadagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tardi. Ma’naviyat, avvalo, oilada, bog‘cha va maktabda shakllantirilsa, samarali bo‘lishi inobatga olingan holda, ushbu jamg‘arma mablag‘lari hisobidan bugungi kunda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” asosida maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus va oliy ta’lim bosqichlari uchun metodik qo‘llanmalar, uslubiy tavsiyalar, ma’naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi va metodikasini boyitishga qaratilgan ilmiy-amaliy adabiyotlar nashr qilinib, joylarga yetkazilmoqda.

Milliy merosimiz, buyuk ajdodlarimizning jahon tamadduniga qo‘shgan ulkan hissalarini dunyo miqyosida keng targ‘ib etishga, ilm, fan va ta’lim uyg‘unligini ta’minlashga, yoshlarga milliy o‘zlikni anglatishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilyapti. Sohaga “Raqamli targ‘ibot” tizimini joriy qilish maqsadida IT-parklar, innovatsion markazlar va frilanserlar bilan hamkorlikda mobil ilovalar, kompyuter o‘yinlari, animatsiya mahsulotlari yaratilayotir.

Qo‘yingki, ma’naviy-ma’rifiy sohani, adabiyot va kitobxonlikni rivojlantirish, bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan har qanday tashabbus, tadbir va intilish qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Sohada tarixiy burilish

Prezidentimizning 2016-yil 30-dekabrdagi mamlakatning yetakchi ilm-fan namoyandalari, akademiklar bilan uchrashuvi, 2017-yil 3-avgustdagi O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvi, 2021-yil 19-yanvardagi ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazgan videoselektor yig‘ilishi sohadagi islohotlarda tom ma’noda yangi davrni boshlab bergan tarixiy tadbirlar sifatida esga olinadi. Zero, ularda ma’naviy-ma’rifiy, ilm-fan va ta’lim, ijodiy tashkilotlar hamda sohaning taraqqiyot strategiyasi belgilab berildi.

Tarmoq rivojidagi yana bir muhim voqelik — Prezidentimiz tomonidan 2021-yil 26-martda “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorning qabul qilinishidir. Mazkur hujjatda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar jarayonida ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan qator muammolarni bartaraf etish, tizimni tubdan takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari qayd qilindi.

“Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish, oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash, targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda olib borish, soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish, el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar belgilandi.

Bugun ilm-fan, madaniyat va san’at, adabiyot va badiiy ijod sohalarining ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotdagi ta’sirchanligini yanada oshirishga qaratilgan qator dasturlar qabul qilingan. Ijodkor ziyolilarga doimiy g‘amxo‘rlik ko‘rsatilmoqda, ularni moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantirish, uy-joy sharoitlarini yaxshilash borasidagi ishlar tizimli yo‘lga qo‘yilgan.

Madaniyat va sport muassasalari, teatr va muzeylarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga e’tibor berilyapti. Milliy kino va kutubxonalar tizimi yanada rivojlantirilmoqda. Mamlakatimiz hududlarining madaniy yuksalishini ta’minlash, xalq hunarmandchiligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha aniq va samarali chora-tadbirlar ko‘rilyapti.

Prezidentimiz tashabbusi bilan an’anaviy tarzda o‘tkazilayotgan Xalqaro maqom san’ati anjumani, Xalqaro baxshichilik san’ati festivali, “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali, “Buyuk Ipak yo‘li” xalqaro folklor san’ati festivali hamda “Raqs sehri” xalqaro festivali dunyoning turli hududlaridan madaniyat va san’at ixlosmandlari e’tiborini mamlakatimizga tortish bilan birga, xalqimizning buyuk ajdodlar va ularning bebaho merosidan faxrlanish, milliy g‘urur hissini oshirishda, madaniy, badiiy saviyasini yanada yuksaltirishda muhim o‘rin tutmoqda.

Besh muhim tashabbus doirasida bolalar musiqa va san’at maktablari zamon andozalari asosida ta’mirlanmoqda, zarur cholg‘ular, asbob-uskunalar bilan ta’minlanyapti. Ularda turli to‘garaklar ochilyapti. Bularning barchasi asrlar osha ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan noyob san’at namunalarini yanada chuqurroq o‘rganish, keng targ‘ib qilish, ayniqsa, yoshlar qalbida ularga nisbatan hurmat va sadoqatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shonli o‘tmishdan yorqin kelajak sari

Tarixga munosabat haqida gap ketganda, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yaqinda poytaxtimizda “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzuida o‘tkazilgan xalqaro konferensiyani alohida tilga olish joiz. Mazkur nufuzli anjuman o‘z mohiyat e’tiboriga ko‘ra noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen bo‘lgan jadidchilik harakati namoyandalarining Markaziy Osiyo hududida milliy istiqlol, ma’rifatparvarlik g‘oyalari tarqalishi, milliy davlatchilik va mintaqaviy o‘ziga xoslik, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo‘shgan ulkan hissasini konseptual hamda tizimli asosda atroflicha o‘rganish, chuqur tadqiq etishga keng yo‘l ochib berdi.

Kuni kecha Toshkent shahrida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha yuksak xalqaro mukofotni topshirish marosimining o‘tkazilishi, “Tashkent city” xalqaro ishbilarmonlik markazi hududida jahon hamjamiyatining korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi sa’y-harakatlarini ifodalovchi monumentning ochilishi, dunyo ahli diqqatini jalb qilgan ushbu tadbirlarda davlatimiz rahbarining ishtirok etishi ham alohida ahamiyatga ega.

Avvalo, bunday nufuzli anjumanni o‘tkazish, o‘ziga xos ramziy mohiyat kasb etuvchi monumentning poytaxt markazidan joy olishi hamma davlatlarga ham nasib qilgan emas. Bu — korrupsiyaga qarshi kurashdagi qat’iyat, erishilayotgan muvaffaqiyatlarning xalqaro e’tirofi. Holbuki, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, korrupsiya butun insoniyatga, jamiyatlar asosiga, iqtisodiy taraqqiyotga zarba beradigan, qonun ustuvorligini buzadigan va xalqning davlat siyosatiga ishonchini keskin susaytiradigan, demokratik institutlar rivojiga to‘sqinlik qiladigan xatarli tahdiddir va u barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish borasidagi rejalarimizga ham jiddiy putur yetkazadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash haqida so‘z ketganda, Singapur tajribasi, aniqrog‘i, Li Kuan Yuning bu boradagi tutumlarini eslamasdan iloj yo‘q. Chunki Singapur Respublikasi 1965-yili mustaqillikka erishguniga qadar u yerda poraxo‘rlik va davlat mablag‘ini o‘zlashtirish jiddiy muammoga aylangan edi. Ishga, o‘qishga kirishdan tortib biror masalani hal qilish faqat pora bilan hal etilgan. Yangi yetakchi sa’y-harakatlari tufayli korrupsiya muammosi tezkorlik bilan samarali yechildi.

Singapurda korrupsiyaga qarshi kurash uchta muhim yo‘nalishga qaratilgan. Birinchisi — poraxo‘rlarni davlat apparatidan chiqarib yuborish. Ikkinchisi — davlat xizmatlarini maksimal darajada soddalashtirish. Uchinchisi — aniqlangan huquqbuzarlik holatlari bo‘yicha jazo choralarini kuchaytirish.

Korrupsiyaga qarshi qator ishlar amalga oshirildi: amaldorlar rotatsiyasi yo‘lga qo‘yildi; yuqori lavozimdagi amaldorlarning o‘zidan quyi bo‘g‘in amaldorlarini tekshirishi shaffof bo‘lishi ta’minlandi; rejadagi tekshiruvlar o‘rniga tasodifiy tekshiruvlar joriy etildi; mustaqil OAV faoliyatini rag‘batlantirish ta’minlandi; huquqbuzarliklar haqida xabar beruvchi fuqarolar bilan uzviy aloqa tizimi yaratildi.

Shu bilan birga, amaldorlarning oylik maoshi ko‘tarildi, o‘z navbatida, hokimlik organlariga eng yaxshi mutaxassislarni jalb qilish va yuqori malakali, moddiy jihatdan ta’minlangan davlat xizmatchilari qatlamini shakllantirish imkoni berildi. Mazkur choralarning barchasi kutilgan samaralarni ko‘rsatdi. Davlat organlari xizmatchilari poraxo‘rlikka undaydigan holatlardan qutuldi.

Singapurning korrupsiyaga qarshi kurashish tajribasi shundan dalolat beradiki, birinchi o‘ringa inson omili, uning ma’naviy darajasi yuksakligi va aholi ishonchi qo‘yilsa, albatta, natija bo‘ladi. Bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda ayni shu tamoyillar ustuvor ekanligiga guvoh bo‘lasiz.

O‘zbekiston korrupsiyaga qarshi kurashishda Singapur va boshqa rivojlangan davlatlar, shuningdek, BMT, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan yaqin hamkorlik qilib kelmoqda.

Umuman, davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti sammitlari hamda o‘nlab yuqori darajadagi xalqaro anjumanlarda ilgari surgan boshqa muhim taklif va tashabbuslar barobarida aynan inson ichki olamini boyitadigan, jamiyatda sog‘lom muhit, totuvlikni barqaror etadigan qator masalalarga ham alohida urg‘u berib kelmoqdaki, bu yangilanayotgan O‘zbekistonning o‘ziga xos imijiga aylanib bormoqda.

Qolaversa, hamkor davlatlar bilan o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish, mustahkamlashga qaratilgan kelishuvlarda, albatta, madaniy, adabiy almashinuvlar, teatr, kino, kitobxonlik sohalarida qator loyihalarni birgalikda amalga oshirish, madaniyat kunlarini o‘tkazish ham ko‘zda tutiladi.

Ildizi chuqur muammolar

Albatta, Prezidentimizning ma’naviyat masalasiga bu qadar jon kuydirayotgani bejiz emas. Avvalo, jahonda globallashuv jarayonlari kuchayib, ongu qalbga qaratilgan tahdid va xatarlar tobora kengayib bormoqda. Bugungi internet va kompyuter asrida axborot uzatish hamda qabul qilish na zamonni, na makonni, na chegarani tan oladi.

> *O‘zbekiston korrupsiyaga qarshi kurashishda Singapur va boshqa rivojlangan davlatlar, shuningdek, BMT, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan yaqin hamkorlik qilib kelmoqda.*
>
> *Umuman, davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti sammitlari hamda o‘nlab yuqori darajadagi xalqaro anjumanlarda ilgari surgan boshqa muhim taklif va tashabbuslar barobarida aynan inson ichki olamini boyitadigan, jamiyatda sog‘lom muhit, totuvlikni barqaror etadigan qator masalalarga ham alohida urg‘u berib kelmoqdaki, bu yangilanayotgan O‘zbekistonning o‘ziga xos imijiga aylanib bormoqda.*

Yana g‘oyat bir muhim jihat ham bor: biz bugun loqaydlik va o‘zibo‘larchilik, tanish-bilishchilik, xudbinlik degan baloga iqtisodiyot sohasida ham, ta’lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash, ma’naviyat, madaniyat tizimida ham, qo‘yingki, hayotimizning barcha jabhasida duch kelyapmiz va bu illat qo‘l-oyog‘imizda kishan bo‘lib turibdi. Bu kishandan xalos bo‘lmasak, taraqqiyot yo‘lidagi intilishlarimiz, kuch-quvvat va mablag‘imiz besamar ketaveradi.

Aslida, bu muammolar ildizi ancha chuqurroq bo‘lib, ularning aksariyati o‘tgan asrda o‘lkamizni mustamlaka qilgan kuchlar tomonidan ekilgan, o‘sib-kengayishi uchun zo‘r berib parvarishlangan. Mustabid tuzumning temir qafaslari, odamlar ongini manipulyatsiya qilish, dinsizlik targ‘iboti, ichkilikbozlikning avj oldirilishi bizni azaliy qadriyatlarimizdan uzoqlashtirdi.

Istiqlol yillarida milliy o‘ziga xosligimizni qayta tiklash, jonlantirish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, turmush tarzimizga singib ketgan noinsoniy odatlar, fe’limizdagi qusurlar hali ham davom etmoqda. Masalan, ayrim yurtdoshlarimizda hayotga mas’uliyatsiz qarash, maishatbozlik, harom luqmadan hazar qilmaslik, xo‘jako‘rsinga ish tutish, tanballik, axloqsizlik ko‘zga tashlansa, jamiyatda dabdababozlik, qonunlarga amal etmaslik, jinoyatchilik, birovning haqidan qo‘rqmaslik holatlariga tez-tez duch kelamiz.

Shu kunlarda ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinayotgan mavzu — Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi tomonidan “O‘zenergoinspeksiya” bilan hamkorlikda olib borgan o‘rganishlari natijasida yurtimizning turli hududlarida joylashgan ba’zi AYO‘QSHlarda sotilayotgan benzin mahsulotlari sifati pastligi, iste’molchi to‘lov qilgan miqdordan kam quyib berilayotgani holatlari aniqlangani ham bu boradagi hayotiy misollardan biridir.

Boshqalarni aldash, xaridorlar haqiga xiyonat qilish, o‘z ishiga mas’uliyatsizlik, firibgarlik — bularning barchasi ma’naviyatsizlik, nafsni jilovlay olmaslik, irodasizlik, ochko‘zlik, axloqsizlikdan kelib chiqadi.

Ayni paytda yoshlar o‘rtasida tobora keng quloch yozayotgan “ommaviy madaniyat”, didsizlik, milliy qadriyatlarga bepisandlik, faqat o‘zini o‘ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste’molchilik kayfiyati, nafsilamrini aytganda, ma’naviyatsizlikning har qanday ko‘rinishi mamlakat xavfsizligiga, uning milliy manfaatlariga, sog‘lom avlod kelajagiga jiddiy xatardir. Chunki ular oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib keladi.

Bu muammolarni bartaraf etish, umuman, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar muvaffaqiyati xalqimizning ma’naviy yetuklik darajasi va milliy ruhi bilan belgilanarkan, demak, madaniyat, ma’naviyat, ma’rifat sohalarini yanada ravnaq toptirish, ziyolilarimiz faolligini oshirish, yoshlarimizning aqliy savodxonligi, bilimi, ijodkorligi, tashabbuskorligi va vatanparvarligini muntazam yuksaltirib borish eng asosiy talab bo‘lib qolaveradi.

Shu bilan birga, hozirgi kunda dunyoda kuzatilayotgan talotumlar, tinchlik-totuvlikka tahdidlarning ortib borishi, davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchsizlik ruhining kengayishi, turli iqtisodiy, ma’naviy buhronlar jamiyatimizdagi mavjud yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etayotgani ham shubhasiz.

Samarali yechimlar va istiqbol

Bugun inson qalbiga yo‘l topish, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalalariga ilmiy yondashgan holda eng samarador usul va uslublarni hayotga tatbiq etish har qachongidan ham zarur.

To‘g‘ri, hozirgi paytda ma’naviyat mavzusini qamrab olgan ilmiy adabiyotlar juda ko‘p. Lekin ma’naviy-ma’rifiy ishlarni qanday targ‘ib etish, ongu qalbga singdirish, insonlarning hayot tamoyiliga aylantirish borasidagi umumlashtirilgan nazariya hali to‘liq, mukammal ishlab chiqilmagan.

Savol tug‘ilishi tabiiy: hozirgi globallashuv sharoitida yoshlar ongiga yot unsurlar ta’sirini kamaytirish, o‘zligimizni yo‘qotmaslik uchun nima qilish kerak?

Avvalo, yosh avlod qalbida immunitetni shakllantirish, ularni ma’naviy-ma’rifiy jihatdan qurollantirmog‘imiz zarur. Bunga esa ta’lim-tarbiya va kitobxonlik orqali erishish mumkin.

Bilasizmi, inson tashqi muhit axborotining 70 — 80 foizini 5 yoshgacha olib bo‘ladi, tafakkur va ong ham ayni shu paytda shakllanadi. Demak, ta’limni inson miyasi fiziologik jihatdan yetilgan 3-4 yoshdan boshlab e’tiqodini mustahkam qilib tarbiyalashimiz kerak. Ana shunda hech qanday tashqi ta’sirlar uning ongu tafakkuri, qalbiga yo‘l topa olmaydi.

Bu boradagi ijtimoiy tadqiqotlarni, so‘rovnomalarni muntazam o‘tkazib borish, ularning natijalarini ilmiy doiralar va keng jamoatchilik bilan muhokama qilish mavjud holatni to‘g‘ri anglash va muammolarni samarali hal etishda nihoyatda muhim.

Prezidentimiz xalqimizning ma’naviy uyg‘onishi masalasiga alohida urg‘u berayotgan hozirgi paytda hamma masalaning yechimini ta’limda, ilmda ko‘rmoqda. “Hamma sa’y-harakatlarimiz tagida ta’lim bor. Qaysi hududga borsam, yoshlar bilan, katta-katta korxonalardagi ishchilar bilan suhbatlashaman. Ulardan “Sizni nima qiynaydi?” deb so‘rasam, bilim yetishmasligini aytadi. Rivojlangan davlatlar bugungi iqtisodiyotiga qanday erishgan? Bilim evaziga! Shuning uchun avvalboshdan ta’limni yaxshilashga harakat qilyapmiz”, degan edi davlatimiz rahbari.

Ma’rifatparvar jadid bobolarimiz ta’kidlaganlaridek, najot — ta’limda, najot — tarbiyada, najot — bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi. Shuning uchun ta’lim muassasalarida xorijiy tillar, zamonaviy texnologiyalar bilan birga, milliy o‘zligimiz timsoli, ma’naviyatimiz asosi bo‘lgan ona tilimizni o‘qitishga yanada kuchli ahamiyat berilishi ayni muddaodir.

Insonning o‘z qadr-qimmatini, o‘zligini anglashi tarixdan, azaliy qadriyatlardan kuch oladi. Shunday ekan, bugun ta’lim muassasalarida tarixni o‘qitish masalasini qayta ko‘rib chiqish dolzarb. Darslik hamda o‘quv qo‘llanmalarini tuzishda o‘quvchilarda o‘tmish voqeliklari haqida fakt va raqamlarni yodlashgina emas, balki ular haqida fikr yuritish, qiyoslash, tahlil qilish, xulosa chiqarish ko‘nikmasini shakllantirish bosh maqsad bo‘lishi shart.

Maktablarimizda aksariyat o‘qituvchilar hozirgacha ham eski usulda dars o‘tishni afzal biladi, ya’ni ularning ta’lim berishi hamma narsadan xabardor bo‘lgan bugungi kun o‘quvchisini qoniqtirmaydi. Ayrimlari o‘z ustida ishlamaydi, dars paytida o‘quvchilarga kitobdan mavzuni ko‘chirtirib, o‘zi butunlay boshqa ish bilan band bo‘ladi. Shu bois tarix, adabiyot, milliy g‘oya va boshqa shu yo‘nalishdagi fanlardan dars beradigan muallimlarni bugungi zamon talabi, ko‘zlagan ezgu maqsadlarimizdan kelib chiqqan holda qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish o‘ta dolzarb bo‘lib turibdi.

Buyuk ajdodlarimiz siymosini ta’sirchan gavdalantiradigan, ularning o‘lmas merosi mohiyatini ochib beradigan ko‘plab badiiy asarlar, kinokartinalar, o‘quv qo‘llanmalari yaratishimiz kerak. Bu borada intilishlarimiz samarasi o‘laroq, “Birinchi Renessans allomalari”, “Ikkinchi Renessans allomalari” singari o‘quv qo‘llanmalari yaratganimizni aytib o‘tish joiz.

Afsuski, ma’naviyat bo‘yicha olib borayotgan targ‘ibot-tashviqot ishlarimiz aksariyat hollarda faqatgina gapbozlik, balandparvoz va’z-ma’ruzalardan iborat bo‘lib qolyapti. Oddiy xalq ularni hazm qilolmayapti. Shuning uchun odamlarning yuragiga yetib boradigan, ularning ishonchini qozonadigan usul va uslublar joriy etilsa, bu borada siljish bo‘lishi mumkin.

Faqatgina bilimli, aqlli, yuksak tafakkur sohibi bo‘lgan zukko va yetuk avlodgina jamiyat hayotining barcha sohasini rivojlantirishga, demokratik jamiyat qurishning murakkab vazifalarini hal etishga qodir. Shuning uchun ular ta’lim-tarbiyasiga e’tibor har kunlik, har soatlik ishimizga aylanishi lozim.

Bizda hali ham ayrim rahbarlar “yuqoridan” berilgan topshiriqlarnigina bajaradi. Ular itoatgo‘ylik, boqimandalik, ma’naviy qaramlik, bilimsizlik qafasidan qutulgani yo‘q. Ijodkorlik, har qanday masalaga kreativ yondashuv, inson psixologiyasini chuqur bilish, ayniqsa, ma’naviy-ma’rifiy ishlarda g‘oyat muhim. Bugun quruq gaplar, totalitar g‘oyalar bilan birovga ta’sir ko‘rsatish, muammoli vaziyatlardan chiqish, odamlarni ortidan ergashtirish juda qiyin.

Biz internet va yuksak texnologiyalar asrida adabiyot, san’at, madaniyatimizning o‘rni va ta’sirini nafaqat saqlab qolishimiz, balki kuchaytirishga e’tibor qaratishimiz kerak.

Bugun kitobxonlik madaniyatini oshirish masalasini ham shouga aylantirib yubordik. O‘g‘il-qizlarimiz yaxshi va sifatli bilim olishga emas, ko‘rik-tanlovda g‘olib bo‘lishga qiziqyapti. Shuning uchun ularni kitobxonlikka jalb etishning boshqa samarali usullarini topishimiz lozim.

“O‘z bolangni o‘zing asra!” degan da’vat faqat quruq shior bo‘lib qolmasligiga katta ahamiyat berish zarur. Oila, maktab va mahalla hamkorligi konsepsiyasi amaliy harakatga aylanishi uchun ota-onalarning farzandlari taqdiriga munosabatini, ma’rifat muassasalari ish uslubini tubdan o‘zgartirish talab qilinadi.

Madaniy hayotimizda tanqidiy yondashuv ruhi sezilmaydi. Sog‘lom tanqid, bahs va tortishuv bo‘lmagan joyda ma’naviyat ham, madaniyat ham, ma’rifat ham bo‘lmaydi.

“Ommaviy madaniyat” tahdidi faqat G‘arbdan kirib kelayotgani yo‘q. O‘zimiz ham bunga yurtimizda chop etilayotgan ayrim shou-biznes nashrlari, kitoblar, suratga olinayotgan ba’zi behayo klip va kinolar, efirga berilayotgan qo‘shiq va raqslar orqali yordam beryapmiz. Eng yomoni, bu bilan millatimizni yanada tubanroq jaholat botqog‘iga botiramiz.

Madaniyat markazlarida tashkil etilgan to‘garaklarga bolalar qamrovi kam. Bu madaniyat sohasida o‘z ishini puxta biladigan, muammolarga amaliy yechim topadigan fidoyi va malakali kadrlar yetishmasligidan dalolat.

Ayrim xususiy telekanallar orqali berilayotgan tuturiqsiz reklama va kliplar, siyqasi chiqqan mavzudagi seriallar ko‘plab yoshlarimiz ongini zaharlamoqda. Estrada mahsuli sifatida taqdim qilinayotgan ba’zi qo‘shiqlarning she’rini muallifning o‘zi yozib, o‘zi ijro etadi. Aslida u she’r emas, uzuq-yuluq so‘zlar, gaplar yig‘indisi. Lekin yoshlar shularni qo‘shiq sifatida qabul qilishmoqda.

Madaniyat ishlarini amalda ravnaq toptirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish vaqti keldi. Ular xorij tajribalari va milliy mentalitet uyg‘unligida yangi g‘oya, tashabbus va uslubiy takliflar berib boradi.

Ma’naviyat va ma’rifat biznesga aylanmasligi kerak. Madaniyat sohasida tijoratlashuv, shaxsiy manfaatning birinchi o‘ringa chiqishi, g‘oyaviy-badiiy jihatdan sayoz asarlarning bozori chaqqon bo‘lib borayotgani el-yurt taqdiriga daxldor har bir insonni tashvishga soladi.

Ongu qalb uchun kurashda yengilmas qurol

Muxtasar aytganda, bugun madaniyat, ma’rifat, ma’naviyat sohalarini rivojlantirishga ilmiy yondashmasak, ko‘p narsani yutqazamiz, yoshlarimiz ta’lim-tarbiyasida bo‘shliq paydo bo‘ladi. Davlatimiz rahbari kuyinib aytganidek, “Ilm va izlanish bo‘lmagan joyda hech qanday rivojlanish, yuksalish va umuman, biror-bir sohaning kelajagi bo‘lmaydi”. Nazoratni qat’iy qo‘lga olmasak, navqiron avlod ongini zaharlayotgan illatlarga qarshi ogohlik va hushyorlik bilan kurash olib bormasak, bu vaqti kelib, o‘ta og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligini unutmasligimiz kerak.

Bugun ilmiy-texnik taraqqiyot shiddatiga biror-bir o‘lchov topish mushkul. Ayniqsa, keyingi yigirma yilning qulayliklarini insoniyat yigirma asrda erishgan yutuqlarga qarshi tarozi pallasiga qo‘ysak, posangi birinchi tarafga og‘adi. Biroq so‘nggi ijtimoiy voqelik ushbu taraqqiyotdan o‘z halovatini topgan inson yana qator muammo va tashvishlar girdobiga ro‘baro‘ bo‘layotganini ko‘rsatmoqda. Ne-ne umidlar uyg‘otgan atomning kashf etilishi ommaviy qirg‘in, genetika sohasidagi yutuqlar ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan xastaliklar xurujiga yo‘l ochdi. Resurslar uchun tinimsiz kurash inson qalbi resurslariga ham daxl etmoqda. Qisqacha aytganda, global taraqqiyot global ma’naviyatning evolyutsiyasiga tahdid solayotgani tobora oydinlashmoqda.

Globallashuv inson jismi bilan birga, ruhiga ham tahdid solmoqda. Razolatning oshkora ish ko‘rishi odatiy holga aylanib, unga beparvolik inson erkinligi sifatida qabul qilinayotganligi ham afsuski bugunning haqiqati.

Donishmandlar aytganidek, ushbu tanazzul ko‘chasidan chiqish uchun G‘arb uzoq yo‘l bosishi, kerak Sharq esa ortga qayrilsa, kifoya.

Darhaqiqat, biz qomusiy allomalar avlodimiz. Yurtimiz insoniyat taraqqiyotiga beshik bo‘lgan. Ajdodlarimiz qoldirgan bebaho meros, azaliy an’analarimiz, ming yillik qadriyatlarimiz xalqimizga kuch berishi, madadkor bo‘lishi aniq. Axir qonimizda buyuk allomalarning genlari bor.

Prezidentimiz tashabbusi bilan ochilgan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, qator xalqaro ilmiy-tadqiqot muassasalarining samarali faoliyati ongu qalb uchun kurashda xalqimizni ana shu ruhiy tayanch, yengilmas qurol, kuchli immunitet bilan ta’minlashiga shubha yo‘q.

Zotan, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi — ma’naviyat chirog‘i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg‘otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi.

O‘zbekistonning yangi uyg‘onish davrini yaratishga kirishgan ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma’naviyat shu’lasi porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas’uliyat tuyg‘usi bilan yashashga da’vat etib turishi zarur.

Bakriddin ZARIPOV,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti professori, akademik,
Jahon fiziologlari jamiyatining akademigi (Stokgolm).

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2023-yil 22-dekabr

PEDAGOGIK TA’LIM INNOVATSION KLASTERI

SOHADA UZLUKSIZLIK VA SAMARADORLIK OMILI

Pedagogika ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida doimiy ravishda jamiyat talablariga mos holda rivojlanadi va takomillashishda davom etadi. Shunday ekan, pedagogika fani oldida har doim yechimini kutayotgan dolzarb muammolar, tadqiq qilinishi zarur bo‘lgan masalalar paydo bo‘laveradi. Mazkur muammolarni ko‘ra bilish, ularni jamoatchilikka taqdim etish, ilmiy asosda tadqiq qilish va yechimi bo‘yicha nazariy asosga ega bo‘lgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish pedagogika fanining zamonaviy talablarga muvofiq rivojlanishini ta’minlaydi.

Tajriba va tashabbus

Xo‘sh, bugungi kunda pedagogikamiz oldidagi konseptual va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb muammolar nimalardan iborat? Quyida ularning ayrimlariga e’tiboringizni qaratmoqchimiz.

Keyingi yillarda jamiyatimizda yuz berayotgan tub o‘zgarishlar, islohotlar, shubhasiz, jahon hamjamiyatida kuzatilayotgan globallashuv jarayonlari bilan bog‘liq ravishda kechayotir. Globallashuv, ta’bir joiz bo‘lsa, bugungi kunda mamlakatlarni rivojlantirishning mohiyati va mazmuniga, strategiyasi hamda tamoyillariga, yondashuv va uslublariga birday ta’sirini o‘tkazayotgan jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining kompleks xarakterda sodir bo‘lishi globallashuv jarayonining ijobiy jihatlari bilan birga, uning salbiy oqibatlarini ham yuzaga chiqarmoqdaki, bu insoniyat oldiga kutilmagan yangi muammolarni qo‘ymoqda. Globallashuvning mohiyatini va xususiyatlarini ilmiy asosda o‘rganish unga moslashish, yo‘nalishlarini kerakli tarzda o‘zgartirish imkoniyatini yaratadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, mazkur jarayondan ijodiy foydalanishning usul va vositalarini, mexanizmlarini ilmiy asosda ishlab chiqish bugungi kun ilm-fanining dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Albatta, bunday sharoitda ta’lim tizimida globallashuv jarayonlariga moslashuvchan, u bilan hisoblashadigan islohotlar muhim rol o‘ynaydi.

Milliy pedagogikamiz yaqin yillargacha o‘quvchilarga insoniyat tomonidan shu paytga qadar egallangan mavjud bilimlarni o‘rgatishni eng maqbul yo‘l sifatida qarab keldi. Pedagogikaga bu kabi mexanik yondashuv o‘quvchilarda fan bo‘yicha masala va hodisalar mohiyatini anglashga nisbatan ijodiy yondashuvni nazarda tutmaydi, faqat mavjud bilimlarni yodlash, ularni amaliyotga joriy etish bilan kifoyalanadi. Bilim olish jarayoni ikki bosqichdan iboratligini, birinchi bosqich — bilimlarni egallash, ikkinchi bosqich undan xulosalar chiqarish ekanini hisobga olsak, bu usul tugallanmagan metodika sifatida o‘zini oqlamasligi oydinlashadi.

Pedagogikaga nisbatan mexanik yondashuv ta’lim tizimida avtoritar pedagogikaga yo‘l ochadi. Buning eng mudhish oqibati o‘quvchilarda nostandart, ijodiy va kreativ fikrlashga bo‘lgan rag‘batni yo‘qotadi. Ilm-fan rivoji uchun esa aynan nostandart, ijodiy va kreativ fikrlaydigan avlodni shakllantirish muhimligi isbot talab qilmaydigan haqiqat.

Milliy ta’lim tizimimizning mustaqillik yillaridagi rivojlanishiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ko‘plab ijobiy ishlar amalga oshirilganining guvohi bo‘lamiz. Ayni paytda, aytish joizki, kadrlar tayyorlash sohasida ta’lim turlari o‘rtasidagi aloqa va uzviylikning ta’minlanishi, mazmuni va shaklini modernizatsiya qilish bilan bog‘liq ayrim kamchiliklar ham kuzatilmoqdaki, bu pirovardida maqsadni belgilashdagi tarqoqlik va sifatning pasayishiga sabab bo‘lmoqda.

Ta’limda uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash ta’lim turlari o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirish, integratsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirishga nisbatan yangicha mexanizmlarni joriy etishni taqozo qilmoqda. Hamkorlikning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish har qachongidan ham dolzarb masalaga aylanmoqda. Bizningcha, ayni shu jihat pedagogik oliy ta’lim muassasalarining strategik ilmiy tadqiqot yo‘nalishi sifatida belgilanishi lozim.

Bugungi kunda Chirchiq davlat pedagogika universitetida uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim turlari o‘rtasida o‘zaro yaxlitlikni ta’minlash, manfaatli hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan “Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri: uzluksiz ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiyada pedagogik ta’lim innovatsion klasterining dolzarbligi va zarurati, ilmiy-nazariy asoslari, uni tashkil etish tamoyillari, tuzilishi va faoliyat mexanizmlari, klaster modeli asosida fan, ta’lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash usul va yo‘llari, o‘quv muassasalari hamkorligini yo‘lga qo‘yish asoslari, ta’lim tizimi hamda sifatini boshqarishda klaster modelining o‘rni va ahamiyati konseptual pedagogik muammo sifatida yoritilgan.

Individual ta’lim ijtimoiy yo‘naltirilgan ta’limning tarkibiy qismi bo‘lib, shaxsga yo‘naltirilgan texnologik omillarga muvofiq tashkil etiladigan, maqsad va mazmun

uyg‘unligini ta’minlaydigan pedagogik yondashuv kombinatsiyasi muvofiqligini yuzaga chiqaradi. Individual yondashuv ta’lim oluvchini har jihatdan o‘rganish va unga pedagogik ta’sir ko‘rsatishni ta’minlaydigan omildir. U ta’lim oluvchiga o‘zini anglash, individual yo‘nalganligini aniqlashtirish, yetakchi o‘quv faoliyatini motivlashtirish, o‘z imkoniyatlarini baholash, ta’limga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda, yangilangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar inklyuziv ta’lim va tarbiya bilan ta’minlanishi ko‘rsatilgan.

Inklyuziv ta’lim uzluksiz ta’lim tizimidagi nisbatan yangi hodisa va uning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish ilmiy jamoatchilik oldiga yangi tadqiqot muammolarini qo‘yadi. Universitetimizda uzluksiz inklyuziv ta’lim klasterining pedagogik-psixologik asoslari bo‘yicha o‘ndan ortiq ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda va ulardan beshtasi muvaffaqiyatli himoya qilindi.

Bugun jahonda an’anaviy ta’lim onlayn formatlar bilan to‘ldiriladigan aralash (gibrid) ta’lim shakliga o‘tmoqda. 2020-yilda kuzatilgan pandemiya sharoiti aralash ta’lim shakllarining hayotiy zarurat ekanini ko‘rsatdi. Axborot texnologiyalari rivojlangan hozirgi sharoitda o‘quvchining o‘qituvchi nazorati ostida majburiy bo‘lishi ma’nan eskirmoqda. O‘quvchi endilikda zaruriy bilim, malaka va ko‘nikmalarni onlayn sharoitda ham o‘zlashtirishi mumkin. Yangi sharoitda o‘quvchi an’anaviy, onlayn va masofaviy shakllarda bilim olishi natijasida ta’lim jarayonining vaqti va joyini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ayonki, yangi O‘zbekiston jamiyatini barpo etish maqsadida barcha soha qatori ta’lim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Dunyo hamjamiyatidan munosib o‘rin olish endi ilm-fanni rivojlantirish va texnologiyalar ishlab chiqarish, intellektni oshirish bilangina ta’minlanadi. Alohida qobiliyati bor o‘quvchilarning iqtidoriga mos ta’lim shakli va mazmunini o‘zida aks ettirgan Prezident maktablari, ijod maktablarining ochilishi, ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ining kengaytirilishini, shubhasiz, ta’lim tizimidagi yutuqlar sifatida ko‘rsatish mumkin.

Davlatimiz rahbari 2023-yil 28-avgustda maktablarda ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchi o‘rnini ko‘paytirish va o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan yig‘ilishda Prezident maktablari dasturi asosida me’yoriy hujjatlarni yangilash, pedagogika oliy ta’lim muassasalari uchun namunaviy fan dasturlarini ishlab chiqish, pedagogik ta’limga samarali yangi yondashuv va texnologiyalarni joriy etish vazifalarini qo‘ydi. Ayni paytda Toshkent va Chirchiqdagi pedagogika universitetlarida mutaxassislar Prezident maktabi dasturi asosida tayyorlanishi va bu muassasalar pedagogika yo‘nalishidagi institutlar uchun “tayanch oliygoh” sifatida belgilandi. Bu borada pedagogik oliy ta’lim muassasalari quyidagi masalalarning yechimiga e’tibor qaratishlari lozim:

- ***maktab ta’limiga Prezident maktabi va ixtisoslashtirilgan maktablar o‘quv dasturi hamda baholash tizimini joriy etish;***
- ***yangi tizimni samarali qo‘llagan o‘qituvchilarni qo‘shimcha moddiy rag‘batlantirish;***
- ***o‘quvchilarga fanlarni tanlash imkoniyatini berish hisobiga yuqori sinflarda o‘qitiladigan fanlar sonini kamaytirish;***
- ***maktab ta’limi mazmunini zamon talabiga moslashtirish, xususan, kompyuter va moliyaviy savodxonlik darslarini joriy etish;***
- ***maktab ta’limida boshqaruv tizimini yangilash;***
- ***o‘qituvchilarni ishga qabul qilish, ularning malakasini oshirish va toifa berish tizimini takomillashtirish.***

Universitetimizda ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish orqali ularning kelajakda zamon talablariga javob beradigan pedagog kadrlar bo‘lishini ta’minlash maqsadida “Kelajak o‘qituvchisi konsepsiyasi” ishlab chiqildi. Unda kelajak o‘qituvchilarini tayyorlash masalasiga pedagog kadrlar tayyorlashga oid yaxlit ta’lim-tarbiya tizimining uzviy va ajralmas qismi sifatida qaralib, mamlakatimiz hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda takomillashtirish masalasiga alohida e’tibor berilgan.

Zamonaviy talablarga javob beradigan, hayotiy va kasbiy kompetensiyalarga ega, kreativ hamda nostandart fikrlash ko‘nikmalarini o‘zlashtirgan, dars mashg‘ulotiga ijodiy munosabatda yondashuvchi, sohaga doir ilg‘or xorijiy tajribalar bilan tanish bo‘lgan, real sharoit va vaziyatlarga tezlik bilan professional moslasha oladigan o‘qituvchi shaxsini tarbiyalash konsepsiyaning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Konsepsiyada kelajak o‘qituvchisi shaxsini tarbiyalash tizimi va uning asosiy prinsiplari, usullari, kasbiy kompetensiyalari, jamiyatning kelajak o‘qituvchisi oldiga qo‘yadigan asosiy talablar ilmiy asosda ishlab chiqilgan bo‘lib, oliygohda o‘quv jarayoni ushbu masalalarni ta’lim amaliyotiga joriy etishga yo‘naltirilgan holda tashkil qilingan.

Universitetda konsepsiya doirasida xalqaro o‘qituvchilar tayyorlash amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Mazkur loyiha aniq va tabiiy fanlar, inklyuziv ta’lim, maxsus pedagogika yo‘nalishlarida xalqaro standartlarga muvofiq o‘qituvchilarni tayyorlash va ularni pedagoglarga ehtiyoji baland bo‘lgan arab davlatlari, shuningdek, Afrika va Yevropaning ayrim mamlakatlariga ishga yo‘naltirishni nazarda tutadi.

Biz taklif etayotgan konsepsiyada klaster vositasida ta’lim muassasalari hamkorligini yo‘lga qo‘yish usullari taklif qilingan. Bular — kelishuv, amaliy empatiya, hamkorning obro‘sini saqlash, to‘ldiruvchilik va ijtimoiy kamsitishlarni rad etish usullari. Bu usullar o‘suvchi va o‘zgaruvchi ko‘rsatkichlardir.

Pedagogik ta’lim klasterining har bir sohada ahamiyati katta. Jumladan, iqtisodiy sohada: samarali ta’lim xizmatlari bozorini shakllantirishga yordam beradi; ijtimoiy sohada: pedagogik ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta’minlashga ko‘maklashadi; marketing sohasida: innovatsion ta’lim texnologiyalarini, ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy ishlarida yangi imkoniyatlarni ommalashtiradi; huquqiy sohada: klaster doirasida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yishning, shuningdek, ta’lim muassasalarini boshqarishning yangi shakllariga o‘tish bilan bog‘liq me’yoriy-huquqiy asoslarni yaratish imkoniyatini beradi; pedagogika sohasida: uzluksiz ta’lim tizimida pedagog kadrlarni tayyorlashni hamkorlikda loyihalash imkonini yaratadi.

Umuman olganda, pedagogik ta’lim klasteri sohaga iqtisodiy modellarni tatbiq qilish natijasida samaradorlikka erishishni nazarda tutadi. Uning subyektlari, yo‘nalishlari va tamoyillari hodisa uchun muhim bo‘lgan ko‘plab savollarga javob beradi hamda o‘zida shu jarayonning mazmunini ifodalaydi.

G‘ofurjon MUHAMEDOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori,
O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi.

QUT-BARAKA OYI

Kecha yurtdoshlarimiz yilning eng uzun tuni, ya’ni “Yaldo kechasi”ni kutib oldi: tun uzunligi qariyb 15 soatni tashkil etdi. Bu quyosh tog‘ echkisi burjiga og‘ib, shamsiy yil taqvimi hisobiga ko‘ra, jadiy oyi kirganidan dalolat beradi.

Burj

Odatda, tun uzayishi mezon oyidagi tun va kun tenglashgan payt — 22-sentabrda boshlanadi. Ammo bu jarayon to‘qson kirgandan so‘ng, ya’ni 1-dekabrdan yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Qish chillasi boshlangach, 25-dekabrdan kun uzaya boshlaydi. Xalqimiz naqlida aytilganidek, “To‘qsonda to‘rg‘ay odimi bilan, qantar og‘sa, qarg‘a odimi bilan kunlar uzayadi”.

Yilda bir marta kuzatiladigan yaldo kechasi Sharqning ba’zi xalqlarida o‘zgacha shodu xurramlikda kutib olinadi, bayram sifatida nishonlanadi.

“Yaldo” so‘zi suryoniy tilidan olingan bo‘lib, “tug‘ilish” ma’nosini anglatadi. Boshqacha aytganda, bunda yer qayta tiklanishiga urg‘u beriladi. Bayram dasturxoniga turli noz-ne’matlar, albatta, anor va tarvuz tortiladi. Bu bejiz emas. Chunki ushbu mevalarning qizil rangi tonggi shafaqqa, hayot yog‘dusiga qiyoslanadi.

Jadiy oyida tabiatning ana shunday noyob hodisasi ro‘y berishi uning ahamiyatini yanada oshiradi.

Ko‘p yillik kuzatishlarga qaraganda, jadiy oyida harorat pasayib, yog‘ingarchiliklar ko‘p bo‘ladi. Axir katta chillaning asosiy qismi shu paytga to‘g‘ri keladi-da! Xalqimiz iborasi bilan aytganda, “Oy qo‘tanlasa, oyda, quyosh qo‘tanlasa, kunda yog‘adi”.

Biroq ayrim yillari iliq kelgani ham bor gap. Lekin qish qishligini qilgani ma’qul. Nuroniylarimiz duoga qo‘l ochishar ekan, “Qish qishday bo‘lsin”, deya yuzlariga fotiha tortishadi. Binobarin, bu fasl ob-havosida gap ko‘p. U kelgusi yil dehqonchiligining barakasi, chorvaning barorini belgilab beradi. Yo‘mg‘ir — baraka, qor — rizq demak. “Qor yog‘di, don yog‘di” maqoli zamirida ana shu hayotiy haqiqat mujassam.

Chillada yoqqan qor g‘allaga koni foyda. U kuzgi bug‘doy maysalari ustini ko‘rpadek qoplab, ekinni qahratonning izg‘irinlaridan asraydi. Erigan qor g‘alla tomiriga kuch beradi.

Shudgor qilingan yerlarda qorning singuvchan suvlari nam saqlab, ozuqa vazifasini o‘taydi. Eng muhimi, qishlovchi zararkunandalarga qiron keltiradi. Chilla suvini, ayniqsa, bog‘bonlar o‘zgacha qadrlashadi. Payt bo‘ldi deguncha, ular dov-daraxtlar va tokzorlarga chilla suvini oqizish payidan bo‘ladi. Negaki, bu paytda suvga qondirilgan tokzor va bog‘lar yozda suvni bir marta kam talab qiladi, mo‘l hosil to‘playdi. Shuning uchun xalqimiz jadiyni baraka oyi sifatida xushnudlikda kutib oladi.

Said RAHMONOV (“Xalq so‘zi”) tayyorladi.

“YANGI O‘ZBEKISTON” MASSIVI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

Qorako‘l tumanida Yangi yil bayrami arafasida zamonaviy shaharsozlik talablari asosida qurilgan massiv foydalanishga topshirildi. U davlatimiz rahbarining 2021-yil 9-dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston” massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq barpo etildi.

Bunyodkorlik

12 ta ko‘p qavatli turarjoy majmuasi 240 ta xonadonga mo‘ljallangan. Bu yerda infratuzilma obyektlari ham qad rostlagan. Chununchi, 330 o‘quvchi o‘rniga ega maktab, 240 o‘rinli maktabgacha ta’lim tashkiloti, 100 qatnovga moslashtirilgan oilaviy poliklinika hamda savdo shoxobchalari shular jumlasidandir.

— Bundan ikki yilcha muqaddam Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasidan Prezidentlikka nomzod Shavkat Mirziyoyev tumanimizda saylovchilar bilan uchrashuv chog‘ida odamlarning o‘z hayotidan rozi bo‘lib yashashi masalasiga alohida to‘xtalib, yangi daha barpo etilishini ma’lum qilgan, bu xushxabardan turarjoyga ehtiyojmand o‘nlab oilalarning boshi ko‘kka yetgan edi, — deydi qorako‘llik mehnat faxriysi Fayzulla Behbudov. — Buni qarangki, juda qisqa muddat ichida biyday dalada ko‘rkam, fayzli shaharcha paydo bo‘ldi. Turarjoyga muhtoj oilalarga davlat tomonidan subsidiyalar berilmoqda.

“Yangi O‘zbekiston” massivini foydalanishga topshirishga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘z olganlar davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yurtimizda barpo qilinayotgan bu kabi yangi dahalar yuzlab oilalarning orzu-umidlari ushalishiga xizmat qilayotganini e’tirof etdi.

O‘z navbatida, “Inson qadri uchun” g‘oyasini mujassam qilgan hayotiy islohotlar tufayli mazkur hududda yaqin istiqbolda yana o‘nlab turarjoylar qurilishi ta’kidlandi.

Tadbirda viloyat hokimi Botir Zaripov ishtirok etdi.

Istam IBROHIMOV (“Xalq so‘zi”).

RAHBARLIK LAVOZIMLARIDA YOSH MUTAXASSISLAR SAFI KENGAYADI

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universitetida yoshlar forumi bo‘lib o‘tdi.

Forum

Unda O‘zbekiston suv xo‘jaligi vaziri Shavkat Hamroyev sohada mehnat qilayotgan yigit-qizlarga qulay imkoniyatlar yaratish, ularni rahbarlik lavozimlariga tarbiyalash, tajribasini oshirish, tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash davlatimizning doimiy e’tiborida ekanligini ta’kidladi. Vazir taklif yoki murojaat bilan kelgan yoshlarni qabul qilishga, ularni tinglashga, muammolarini hal etishga hamisha tayyor ekanligini bildirdi.

Binobarin, bugungi kunda tizimda 152 nafar yosh rahbarlik lavozimlarida ishlayotgani, kelgusida ularning soni yanada ortishi aytib o‘tildi. Vazirlik tizimi tashkilotlariga har yili oliy o‘quv yurtlarini bitirgan 500 nafar yosh mutaxassis ishga qabul qilinmoqda. Barcha tizim tashkilotlarida yoshlarning boshlang‘ich tashkilotlari faoliyat ko‘rsatadi.

Anjumanda “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti rektori, professor Bahodir Mirzayev ishtirokchilarni oliy o‘quv yurtining strategiyasi bilan tanishtirdi. Iqlim o‘zgarishi, global isish, suv tanqisligi va yerlar degradatsiyaga uchrayotgan sharoitda yosh mutaxassislarning bu tabiiy xavf-xatarlarga oid bilim va salohiyatini oshirish yuzasidan fikr bildirdi.

Tadbirda yoshlar vakillari so‘zga chiqib, ilmda, fan olimpiadalarida, sportda erishayotgan natijalari haqida so‘z yuritdi. Kredit olib, tadbirkorlikni yo‘lga qo‘ygan, kanal va kollektor bo‘ylarida dehqonchilik, chorvachilikni rivojlantirib, daromad olayotgan suvchi yoshlar o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashdi.

Vazir va yosh mutaxassis hamda talabalar o‘rtasidagi ushbu yuzma-yuz muloqot yoshlarga o‘zlarining fikr va takliflarini erkin bildirish, ularni qiziqtirgan savollarga batafsil javob olish imkonini berdi.

Faxriddin BOZOROV (“Xalq so‘zi”).

REKLAMA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI AKADEMIYASI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E’LON QILADI:

Boshqaruv sotsiologiyasi va psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Iqtisodiyot va moliya kafedrasi mudiri;

Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari kafedrasi mudiri;

Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari kafedrasi professori;

Ma’naviyat va ma’rifat kafedrasi dotsenti.

Tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

1. Rektor nomiga ariza.
2. Xodimlarni hisobga olish bo‘yicha shaxsiy varaqa.
3. Ma’lumoti, ilmiy daraja, ilmiy unvoni haqidagi diplom nusxalari.
4. Pasport nusxasi.
5. Ilmiy ishlar ro‘yxati (Ilmiy kotib tomonidan tasdiqlangan holda).
6. Malaka oshirish to‘g‘risidagi guvohnoma nusxasi.

Tanlovda quyidagi nomzodlarga ustuvorlik beriladi:

— tegishli ixtisoslik bo‘yicha ilmiy daraja (DSc) va ilmiy unvonga (professor), shuningdek, tegishli mutaxassislik bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning fan doktori (DSc) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy daraja va unvonlarga ega bo‘lgan;

— davlat tilini mukammal, shuningdek, xorijiy tillardan birini (ingliz, fransuz va nemis) erkin darajada bilishi va IELTS/TOEFL sertifikatiga ega (SEFR B2, C1, C2);

— “SCOPUS” va “WEB OF SCIENCE” bazalariga kiritilgan nufuzli jurnallarda maqola chop etganligi va “h-index”ga ega;

— zarur bo‘lgan kasbiy va tashkilotchilik qobiliyatlariga, faoliyat turi va vakolatlari doirasida tegishli bilim hamda ko‘nikmalar (pedagogik mahorat, jamoa va tinglovchilar bilan samarali ishlay olish)ga ega bo‘lgan;

— dars jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va amaliy dasturlardan foydalanish bilim va ko‘nikmalariga ega bo‘lgan;

— mutaxassisligi bo‘yicha xalqaro nufuzli (“Top — 500”) oliy ta’lim muassasasini tamomlagan yoki unda faoliyat yuritgan, shuningdek, malaka oshirgan yoinki stajirovka o‘tagan nomzodlar.

Hujjatlar e’lon chiqqan kundan boshlab 1 oy muddat ichida qabul qilinadi.

Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 45-uy. Telefonlar: 71-232-60-62, 71-239-89-00.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1241.32 472 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.

Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 01.18 Topshirildi — 02.00 1 2 3 4 5 6